



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «28» июль

VI-51-143-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

### **Tuman mahalliy byudjetining 2022-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2022-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy majlisi senati kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 459-sonli qarori, Xalq deputatlari tuman kengashining 2022-yil 6-yanvardagi VI-42-1-8-109-K/22-sonli qarori, tuman hokimligining tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 1840,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ oluvchi tashkilot rahbari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha xujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Qobilova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

**Hokim**



**SH.B.ABDULLAYEV**

Xalq deputatlari Angor tuman  
Kengashining  
2022 yil 28 iyuldagi  
VI-51-143-8-109-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Angor tuman mahalliy budjetining 2022-yil davomiga ko'ra qo'shimcha  
manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar**

T/p	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo'yicha ajratilgan mablag' maqsadi	Miqdori (ming.so'mda)	Foiz hisobida
1	2	3	4	5
	<b>Jami tuman budjetining 2022 yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'lar</b>		<b>1 840 000</b>	<b>100%</b>
	<b>Jami summasi</b>		<b>45 271</b>	<b>2,5%</b>
<b>I.</b>	<b>Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun</b>		<b>45 271</b>	<b>2%</b>
1,1	Tuman Hokimligiga	2021-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlardan yuzaga kelgan qarzdolikni qoplash uchun	21 350	1,2%
1,2	Tuman Hokimligiga	Tuman hokimligi xodimlarni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markaziga o'qitish xarajatlariga	7 118	0,4%
1,3	Tuman Hokimligiga	Tuman hokimligi xodimlarni moddiy rag'batlantirish	16 803	0,9%